



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK
XO‘JALIGI
2023- YIL YANVAR-DEKABR OYLARI
(dastlabki ma’lumot)**






2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 27 807,7 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar 26 828,5 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 293,4 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 685,8 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar





Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʻati

01



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – **104,1%**

02



Oʻrmon xoʻjaligi – **102,1%**

03



Baliqchilik xoʻjaligi – **102,1%**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 104,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 104,1 %ni, oʻrmon xoʻjaligi – 102,1 %ni, baliqchilik xoʻjaligi – 102,1 %ni tashkil qildi.




Ma'lumot uchun:
 Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi:

✓ Paxta	— 110,4 %
✓ Jami don	— 107,5 %
✓ Pilla	— 107,0 %
✓ Go'sht (tirik vaznda)	— 105,8 %
✓ Poliz	— 104,5 %
✓ Poliz Asal	— 102,6 %



Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, %da

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar




2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,5 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari (2022- yilning yanvar- dekabr oylarida 96,2 %), 1,1 %i – o'rmon xo'jaligi (1,1 %), 2,5 %i – baliqchilik xo'jaligi (2,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (3049,2 mlrd so'm), Qo'shko'pir (3020,4 mlrd so'm) va Xonqa (2953,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (89,1 mlrd so'm), Urganch shahrini (636,6 mlrd so'm) hamda Tuproqqal'a tumanini (740,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.




Ma'lumot uchun:

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Urganch, Qo'shko'pir va Xonqa tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, don, paxta, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqal'a tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da






Viloyatda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulishga ega hududlar



Hududlar boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʼati, %da



Yuqori oʻsish surʼatlari Qoʻshkoʻpir (117,5 %), Xonqa (105,2 %) va Gurlan (104,5 %), tumanlarida qayd etildi.



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

	<i>Hajmi mlrd soʻm</i>	<i>Oʻsish surʻati, %da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, %da</i>
Xorazm viloyati	27807,7	104,1	96,3
Urganch sh	636,6	100,4	80,9
Xiva sh	89,1	100,1	98,6
Bogʻot	2573,3	103,6	96,3
Gurlan	2706,7	104,5	98,6
Qoʻshkoʻpir	3020,4	117,5	94,6
Urganch	3049,2	100,9	97,3
Hazorasp	2387,4	101,9	97,3
Tuproqqalʼa	740,8	102,9	99,3
Xonqa	2953,1	105,2	96,3
Xiva	2229,	103,1	98,7
Shovot	2746,3	101,9	98,3
Yangiariq	2302,7	101,0	91,5
Yangibozor	2372,2	102,5	96,3

Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 96,3 % ni tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkichni hududlar boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega boʻlgan Tuproqqalʼa tumani (99,3 %) va boshqa koʻpgina tumanlarni (98,7 %-96,3 %) keltirishimiz mumkin. Bu koʻrsatkich Urganch shahrida 80,9 % va Yangiariq tumanida 91,5 % ni tashkil etdi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari — hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 26 160,4 mlrd so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 11 697,1 mlrd so'mni (104,3 %), chorvachilik mahsulotlari 14 463,3 mlrd so'mni (103,7 %) tashkil qildi.





Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Dehqonchilik mahsulotlari




Chorvachilik mahsulotlari





QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI



Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-dekabr




26160,4
mlrd so'm

O'sish surati

104,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligining umumiy
hajmdagi ulushi, % da




Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (11,2 %), Xonqa (10,8 %), Qo'shko'pir (10,5 %) va Shovot (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (115,0 %), Gurlan (104,7 %), Xonqa (104,5 %) va Tuproqqal'a (104,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da



Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

- 01 ▶ **Tuproqqal'a**
- 02 ▶ **Yangibozor**
- 03 ▶ **Xiva**

- Urganch sh ◀ 01
- Xiva sh ◀ 02
- Hazorasp ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,3 %i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,6 %i – fermer xo'jaliklariga, 6,1 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun:


Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Sog'ib olingan sut — 94,1 %
- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 87,6 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 83,6 %
- ✓ Sabzavotlar — 78,2 %
- ✓ Kartoshka — 74,3 %





Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, %da



2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (36,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (97,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (18,2 %) qayd etildi.




Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Yangiariq tumanida (16,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (56,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (2,2 %) kuzatildi.




Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



Fermer xo'jaliklari


Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Dehqonchilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Xonqa (11,4 %), Urganch (10,9 %), Gurlan (10,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Qishloq xo'jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Gurlan (107,9 %), Xonqa (106,9%) va Tuproqqal'a (106,2%) tumanlarida qayd etilgani kuzatiladi.




Jami don



Xo'jalik toifalari orasida jami don yetishtirishning eng katta hajmi 334056 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 67,3 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 10,4 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,6 % o'sish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 5,0 % kamayish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha jami don yetishtirish



Hududlar o'rtasida jami don yetishtirish tarkibining asosiy qismini Gurlan va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 14,8 % va 11,9 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (10,6 %) va Urganch (10,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahrida (0,2 %) va Tuproqqal'a tumanida (4,3 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (119,6), Shovot (112,0 %), Bog'ot (110,1 %), Tuproqqal'a (107,1 %), Urganch (106,9 %) va Xiva (106,9 %) tumanlarida qayd etildi.




Bug'doy

Fermer xo'jaliklari	220352 tonna
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	80660 tonna
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15708 tonna

Xo'jalik toifalari orasida bug'doy yetishtirishning eng katta hajmi 220352 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 69,6 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 12,2 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 13,7 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha bug'doy yetishtirish



Hududlar o'rtasida bug'doy yetishtirish tarkibining asosiy qismini Shovot va Qo'shko'pir tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 12,2 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch (10,9 %) va Xonqa (10,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,1 %) va Tuproqqal'a tumanida (2,5 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor (120,2 %), Qo'shko'pir (118,6 %) va Shovot (114,2 %) tumanlarida qayd etildi.




Kartoshka



Xo'jalik toifalari orasida kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 110092 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 74,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 6,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 32,5 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish



Hududlar o'rtasida kartoshka yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xonqa va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 13,7 % va 13,4 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (12,2 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,5 %) va Urganch (0,7 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (112,8 %), Qo'shko'pir va Tuproqqal'a (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.




Sabzavotlar

Fermer xo'jaliklari	120628 tonna
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	510864 tonna
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	21930 tonna

Xo'jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 510864 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 78,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 2,7 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,3 % o'sish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,0 % kamayish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish




Hududlar o'rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xiva va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 14,9 % va 10,8 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xonqa (10,5 %) va Bog'ot (10,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch (0,3 %) va Xiva (0,6 %) shaharlaridai kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Xiva shahri (105,8 %) va Shovot (104,2 %) tumanlarida qayd etildi.




Poliz



Xo'jalik toifalari orasida poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 84780 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 50,8 %i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 6,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 19,6 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha poliz mahsulotlari yetishtirish



Hududlar o'rtasida poliz mahsulotlari yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xiva va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 13,5 % va 13,2 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Shovot (12,1 %) va Yangibozor (11,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,5 %) va Tuproqqal'a tumanida (3,3 %) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (126,2 %), Shovot (105,6 %) va Yangibozor (103,3 %) tumanlarida qayd etildi.




Meva va rezavorlar

Fermer xo'jaliklari	59702 tonna
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	106893 tonna
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2433 tonna

Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 106893 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 63,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 8,1 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 29,0 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish



Hududlar o'rtasida meva va rezavorlar yetishtirish tarkibining asosiy qismini Shovot va Xiva tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 13,8 % va 11,8 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Bog'ot (10,9 %) va Urganch (10,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,1 %) va Urganch (0,3 %) shaharlaridai kuzatildi.



Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (108,1 %), Bog'ot (107,7 %) va Xonqa (107,3 %) tumanlarida qayd etildi.


Uzum



Xo'jalik toifalari orasida uzum yetishtirishning eng katta hajmi 36743tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 73,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 4,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 15,5 % o'sish qayd etildi.

Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish



Hududlar o'rtasida uzum yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 33,1 % va 16,9 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Yangibozor (10,8 %) va Xonqa (8,9 %) tumanlarida qayd etildi.


Past ko'rsatkichlar Xiva (0,3 %) va Urganch (0,2 %) shaharlarida kuzatildi.



Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (106,1 %), Bog'ot (104,7 %) va Gurlan (102,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Chorvachilik mahsulotlari



Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-dekabr

14463,3

mlrd so'm

O'sish sur'ati

103,7 %



Qishloq xo'jaligining umumiy hajmidagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (11,5 %), Qo'shko'pir (11,4 %), Xonqa (10,4 %) va Shovot (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar



ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (124,4 %) tumanida qayd etildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna ,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	184860	105,8	6705	105,8	161873	100,9	16282	2,0 m
Sut	1110873	101,1	59078	105,2	1045193	100,9	6602	104,3
Tuxum mln, dona	480,2	100,3	47,3	106,6	325,5	105,5	107,4	85,2
Baliq	30933,5	102,0	19473,1	103,0	1486,0	101,1	9974,4	100,2


2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 3,6 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sut yetishtirishning 5,3 %i fermer xo'jaliklariga, 94,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, olingan tuxumning 9,8 %i fermer xo'jaliklariga, 67,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Ovlangan




baliqning 63,0 %i fermer xo'jaliklariga, 4,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 184,9 ming t. go'sht (2022–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 5,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab



chiqarish umumiy hajmidan 87,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna




Sut




Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1110,9 ming t. sut (2022–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 1,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,1%i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha sut yetishtirish, tonna




Tuxum




Hajmi, mln dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 480,2 mln dona tuxum (2022– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 0,3 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona




Baliq




Hajmi,tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 30 933,5 tonna (2022–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 2,0 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 63,0 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna



2024- yilning 1- yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>Barcha</i>	<i>shu jumladan:</i>
--	---------------	----------------------





			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	968,0	100,6	76,2	104,3	876,8	100,2	15,0	112,6
<i>shundan, sigirlar</i>	366,1	100,5	33,4	102,2	326,9	100,1	5,8	114,6
Qo'y va echkilar	497,2	102,6	84,2	106,4	382,0	101,5	31,0	106,2
Otlar	5,9	100,8	0,8	103,5	5,0	100,2	0,1	118,3
Parrandalar	6977,7	107,0	1119,9	111,3	3769,8	100,8	2088,0	117,7

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,9 %i fermer xo'jaliklariga, 76,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, otlarning umumiy sonidan 14,2 %i fermer xo'jaliklariga, 84,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan 16,1 %i fermer xo'jaliklariga, 54,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.


Yirik shoxli qoramollar

Soni, ming bosh

O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 968,0 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 6,2 mingtaga (0,6 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh




Sigirlar




Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 366,1 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 1,8 mingtaga (0,5 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.


Sigirlar, ming bosh






Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 497,2 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 12,5 mingtaga (2,6 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 76,8 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Qo'y va echkilar, ming bosh






Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 5 859 taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 47 boshga (0,8 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 84,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




Otlar, bosh






Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 977,7 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 459,0 mingtaga (7,0%) ko'paydi.

2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 54,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Parrandalar, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96